

# SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022-yil 1- fevral holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

# Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

3



## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

30 205

111,9 %



## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

28 558

111,3 %



## Yangi tashkil etilgan korxonalar (2021- yilda)

447


95,9 %



Mamlakatimizda qulay ishbilamonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z ornida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




# Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2022-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)



*Mas'uliyati cheklangan jamiyat  
birlik*



*Xususiy korxona  
birlik*



## Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlar qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

# Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra)

5



## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

6

21  
aksiyadorlik  
jamiyati

111  
unitar  
korxona

332  
boshqalar

5 445  
oilaviy korxona

7 239  
xususiy korxona

**24 740**  
tijorat korxonalarini

**11 592**  
mas'uliyati cheklangan  
jamiyat

## Aksiyadorlik jamiyati:

Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; - aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(yanvar oyida, birlikda)



# Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar oyida, birlikda)

7



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi


(2022- yil yanvar oyida, umumiy sonidagi ulushi, foizda)



2022- yil yanvar oyida 447 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 256 ta, xususiy korxonalar - 57 ta, oilaviy korxonalar - 105 ta, muassasalar- 22 ta va boshqalar - 7 tani tashkil etdi.

## Oilaviy korxonalar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra 5 918 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 642 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 5 445 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 614 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 105 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 17 taga yoki 1,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, 12 171 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 241 taga yoki 22,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 11 592 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 040 taga yoki 21,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 256 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 taga yoki 1,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

9




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, 590 tani tashkil etib, ulardan 573 tasi yoki 97,1 % faoliyat ko'rsatmoqda.

Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 143 taga yoki 132,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yil yanvar oyida viloyatimizda 8 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni


(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil
Jami	4 511	5 832	7 688	9 552	11 592
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	392	630	837	1 327	1 695
Sanoat	732	957	1 231	1 508	1 819
Qurilish	744	989	1 368	1 559	1 815
Savdo	1 373	1 725	2 370	2 992	3 710
Tashish va saqlash	483	506	580	631	656
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	175	222	300	364	448
Axborot va aloqa	75	81	103	113	144
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	41	68	91	121	162
Boshqa turlar	496	654	808	937	1 143

# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2022-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)

12



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)

	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil
Jami	59	188	367	430	573
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	7	57	91	108	125
Sanoat	33	52	99	118	138
Qurilish	1	10	21	24	36
Savdo	7	38	107	132	212
Tashish va saqlash	4	8	7	8	10
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1	6	18	16	21
Axborot va aloqa	1	1	2	2	2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	2	4	5	8
Boshqa turlar	4	14	18	17	21

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar soni**  
(2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

**13**



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

14

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>573</b>	<b>145</b>	<b>428</b>
<b>Termiz sh.</b>	<b>331</b>	<b>36</b>	<b>295</b>
<b>tumanlar:</b>			
<b>Oltinsoy</b>	<b>7</b>	<b>6</b>	<b>1</b>
<b>Angor</b>	<b>20</b>	<b>5</b>	<b>15</b>
<b>Bandixon</b>	<b>1</b>	<b>-</b>	<b>1</b>
<b>Boysun</b>	<b>8</b>	<b>6</b>	<b>2</b>
<b>Muzrabot</b>	<b>15</b>	<b>6</b>	<b>9</b>
<b>Denov</b>	<b>20</b>	<b>10</b>	<b>10</b>
<b>Jarqo'rg'on</b>	<b>15</b>	<b>8</b>	<b>7</b>
<b>Qumqo'rg'on</b>	<b>11</b>	<b>5</b>	<b>6</b>
<b>Qiziriq</b>	<b>10</b>	<b>1</b>	<b>9</b>
<b>Sariosiyo</b>	<b>19</b>	<b>10</b>	<b>9</b>
<b>Termiz</b>	<b>47</b>	<b>17</b>	<b>30</b>
<b>Uzun</b>	<b>20</b>	<b>20</b>	<b>20</b>
<b>Sherobod</b>	<b>14</b>	<b>8</b>	<b>6</b>
<b>Sho'rchi</b>	<b>15</b>	<b>7</b>	<b>8</b>

# Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)


15



2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz shahri (17,9 %), Denov (11,9 %), Jarqo'rg'on (8,0 %), Sho'rchi (7,0 %), Qumqo'rg'on (6,8 %), Termiz (6,6 %), Sherobod (6,5 %), Uzun (5,3 %), Sariosiyo (5,2 %), Boysun (4,8 %), Qiziriq (4,8 %), Angor (4,7 %), Muzrabot (4,6 %), Oltinsoy (3,9 %) va Bandixon (2,0 %) tumanlarida hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2022- yil yanvar oyida, birlikda)



2022- yil yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Termiz sh. (16,3 %), Boysun (13,2 %), Denov (11,6 %), Qumqo'rg'on (7,8 %), Jarqo'rg'on (6,9 %), Sho'rchi (5,2 %), Angor (5,2 %), Sherobod (4,9 %), Uzun (4,9 %), Sariosiyo (4,7 %), Termiz (4,5 %), Oltinsoy (4,0 %), Muzrabot (3,6 %), Qiziriq (3,6 %) va Bandixon (3,6 %) ulushiga ega.


# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni

(2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



2022- yil 1- fevral holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz sh. (26,2 %), Denov (9,6 %), Termiz (9,0 %), Jarqo'rg'on (7,2 %), Sherobod (6,2 %), Sho'rchi (5,4 %), Boysun (5,3 %), Qumqo'rg'on (5,3 %), Qiziriq (4,7 %), Angor (4,5 %), Muzrabot (4,3 %), Sariosyo (4,2 %), Uzun (3,5 %), Oltinsoy (2,5 %) va Bandixon (2,1 %) ulushiga ega.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning  
qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**  
(2022-yil 1-fevral holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)


17



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni


(2022- yil yanvar oyida, birlikda)



2022- yil yanvar oyida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Termiz sh. (16,3 %), Boysun (13,2 %), Denov (11,6 %), Qumqo'rg'on (7,8 %), Jarqo'rg'on (6,9 %), Sho'rchi (5,2 %), Angor (5,2 %), Uzun (4,9 %), Sherobod (4,9 %), Sariosiyo (4,7 %), Termiz (4,5 %), Oltinsoy (4,0 %) Muzrabot (3,6 %), Qiziriq (3,6 %) va Bandixon (3,9 %) tumanlari ulushiga ega.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2022- yil yanvar oyida, birlikda)



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga-vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- oktabrdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275- sonli qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

The screenshot shows the homepage of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The main title is "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". The menu includes "ASOSIY SAHIFA", "QO'MITA HAQIDA", "AXBOROT XIZMATI", "INTERAKTIV XIZMATLAR", "OCHIQ MA'LUMOTLAR", "MUROJAATLAR", and "KONTAKTLAR". The central search bar has dropdown menus for "Xizmatlar ro'yxati", "Elektron hisobot", "KTYaDR ma'lumotlari", "Uslubiy materiallar", "Statistik klassifikatsiyalar", "Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati", and "Korxona pasporti". The right sidebar lists "FOYDALI MA'LUMOTLAR" such as "Ahollini ro'yxtarga olish-2022", "Harakatlar strategiyasi", "Press-relejlar", "Choraklik natijalar", "Nashrlar – statistika haqida", "Uslubiy materiallar", and "Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar". The bottom of the page has a link to "Statistik registrlarni yuritish bo'limi" and a phone number "Tel. (76) 225-65-90".

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni  
yuritish bo'limi  
Tel. (76) 225-65-90**